

Iroda YUSUPJONOVA,
*Andijon davlat universiteti Umumiy psixologiya
 kafedrasi dotsent v.b., Psixologiya fanlari
 bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 E-mail:yusupjonovairoda@mail.ru*

Nizomiy nomidagi TDPU umumiy psixologiya kafedrasi v/b professori, psixologiya fanlari doktori F.A.Akramova taqrizi asosida

AMALIY PSIXOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARI KASBIY SHAKLLANISHINI ILMIY TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada amaliy psixologiya yo'nalishi talabalarining oliy ta'lim muassasasida kasbiy shakllanishini ilmiy tadqiq etishning nazariy tahlili va kasbiy shakllanishning psixologik omillarni ta'siri natijasida rivojlantirilishi psixologik tahlili ifodalangan.

Kalit so'zlar: talabalarining kasbiy shakllanish jarayoni, kasbga yo'naltirish muammosini o'rganilishi, kasbning ijtimoiy nufuzi va qadr-qimmatini.

МЕТОДОЛОГИЯ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ФОРМИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ПРИКЛАДНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация

В статье представлен теоретический анализ научных исследований профессионального становления студентов прикладной психологии в вузе и психологический анализ развития профессионального становления в результате воздействия психологических факторов.

Ключевые слова: процесс профессионального становления студентов, исследование проблемы профориентации, социального престижа и ценности профессии.

METHODOLOGY OF SCIENTIFIC RESEARCH OF PROFESSIONAL FORMATION OF APPLIED PSYCHOLOGY STUDENTS

Annotation

The article presents the theoretical analysis of the scientific research of the professional formation of applied psychology students in a higher educational institution and the psychological analysis of the development of professional formation as a result of the influence of psychological factors.

Key words: the process of professional formation of students, the study of the problem of career orientation, the social prestige and value of the profession.

Bugungi kundagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi ham yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, imkoniyatlarni belgilashdan iboratdir. Shu jihatdan ham har bir insonning ma'naviy jihatdan yuksak rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, shaxs sifatida kamol topishni o'zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh kasb egalari shakllantirish lozim. O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli olimlar tomonidan talabalarining kasbiy shakllanish jarayonini, jumladan, ularni tayyorlash bosqichlarini o'rganishga katta qiziqish bo'lishiga qaramasdan, bu fenomen o'z mazmuniga ko'ra murakkab va ko'p qirrali bo'lib, turlicha talqin etiladi.

Kasbga yo'naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta o'rganish, tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga ma'lum darajada hissa qo'shish mumkin. Qolaversa, kasb tanlashdagi muvaffaqiyatsizliklar shaxs faoliyati va faolligiga salbiy ta'sir etishi, ayni paytda u yoki bu sohalarida mehnat unumdorligining pasayishi shaxs va faoliyat nomutanosibligining yuzaga kelishi kabi ayanchli ijtimoiy-psixologik asoratlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan muhim vazifalar belgilangan. Hozirga kelib, dunyoning har bir mamlakatida o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyat tufayli shaxslarni, xususan o'smir yoshidagi o'quvchilarning muayyan bir kasblarga yo'naltirish, o'zini-o'zini anglash, o'z kasbini muvaffaqiyatli bajarishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish ayniqsa muhim ahamiyat kasb yetdi. Chunki, inson hayotida kasbiy faoliyatni to'g'ri belgilash bu uning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi, yetuk kadri bo'lib yetishishida asosiy o'rinni yegallaydi. Ushbu jarayonda insonning psixologik imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanish va shu asosida ijtimoiy istiqbollarni belgilash har bir davlatning, jamiyatning, xalqning eng muhim hamda dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Zero, har bir shaxs o'zining jamiyatning, xalqning bir qismi sifatida ham o'z-o'zini anglashi, tarbiyalashi va hamda rivojlantira borishi lozim [2,3,4,5].

Faqat kasb to'g'risidagi tasavvurlarning o'zigina mutaxassislik bo'lib kamol topish uchun yetarli omil bo'la olmaydi. Buni talabalar ongiga muntazam singdirib borish lozim. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib aytish mumkinki, mutaxassis sifatida kamol topish uchun qator masalalarga e'tibor qaratilishi zarur:

- kasbni ongli ravishda tanlash;
- kasb egallash uchun aniq maqsad qo'yish;
- kasb to'g'risidagi tasavvurlarning real hayotdan uzoq emasligi;
- egallanadigan kasbning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda amaliy faoliyatda dush kelinadigan qiyinchiliklar haqida tasavvur qila bilish;
- kasbiy motivlarni tashqi omillar ta'sirida emas, shaxs ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllantirish;
- kasbning ijtimoiy nufuzi va qadr-qimmatini yaxshi bilish;

- mutaxassis sifatida kamol topish uzoq vaqtni talab etishini anglash va boshqalar.

Shuningdek, mavjud ilmiy qidiruv holatini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan muammo bo'yicha yurtimiz olimlarning fikrlarini ko'rib chiqish o'rinli hisoblanadi. Jumladan, S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilovalarning ta'kidlashicha bo'lajak mutaxassis shaxsida yangi a'zolari orasida, turli yoshdagi kishilar bo'lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko'nikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O'zgarigan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatning shakllanishiga olib keladi. [6]

R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy shakllanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlarida insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish xam fundamental, xam amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalari ekanligi ta'kidlanadi. Hozirgi zamon psixologiyasi yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

1. Mutaxassislarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarni tadbiiq etish;
2. Kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladiagan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi psixologlarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi [4].

Sh.G.Saparovning talabalarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki ularning shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir. Shuningdek, muallif jins va kasbiy faoliyatning motivatsion asosi kabi omillarni ko'rsatadi [11]

Yu.M.Asadovning dissertatsiyasida umumta'lim maktabi o'qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy o'sish yunalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish samaradorligi ko'p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog'liq [3]

R.B.Abduraxmonovning "Pedagog va psixologlarda kasbiy yo'nalganlikning kamol topishi" mavzusidagi dissertatsion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo'nalganlik komponentlari aniqlangan va oliy o'quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi o'rganilgan [2].

D.G. Muhamedova va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni optimallashtirish, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy muhim sifatarni rivojlantirish, kasbiy shakllanishning psixologik xususiyatlari kabi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan. Unda o'quv jarayonida shaxslilik yunalishining rivojlanish dinamikasi hamda pedagogik ijtimoiy persepsiya hususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, shaxsga yu'naltirilgan yondoshuv nuqtai nazaridan bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oliy o'quv yurtida tayyorgarlik jarayonida kasbiy yetilish sharoitida shaxslilik yunalishi tadqiq etilgan. [7]

S.N.Jo'rayevaning ilmiy izlanishlarida keltirilishicha kasbiy kamolotga erishish shaxs faoliyatining uzoq muddatli davrini qamrab olgan bo'lib, bunda ijtimoiy mavqei, yashash tarsi va avlodlar o'rtasidagi an'analarni davom ettirilishi bilan tavsiflanishi, shu sababli oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talabalarining mutaxassis sifatida kamol topishida ularning shaxsiy hamda vkasbiy shakllanishini ta'minlashga to'siq bo'luvchi bir qator omillarni sanab o'tish mumkin. Bular:

1 Mutaxassislarga qo'yilgan kasbiy va shaxsiy talablarning o'sib borayotganligi;

2 Kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillarning davriy xususiyatga egaligi va kasblar to'g'risidagi ijtimoiy ideallarda yagona me'yorning mavjud emasligi;

3 O'spirin kasbiy tasavvurlarining ijtimoiy- iqtisodiy shart- sharoitlarga, bozor munosabatlariga hamohang o'zgarayotganligi hamda kasb-hunar va tegishli mutaxassislik yo'nalishlari o'rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi;

4 Yoshlarning mutaxassislik yo'nalishlarini tanlashlarida aniq tasavvurga, maqsadga, faoliyat yo'nalishiga, istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatiga ega emasligi va boshqalar.[3,7]

R.Z.Gaynutdinovning doktorlik dissertatsiyasida talabaning kasbiy faoliyati komponentlari reapizatsiyasi darajasi, shaxsiy xossalari, omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi quyidagi mezonlarini ajratish mumkin. Ular: -shaxsiy-professional komponentlikning o'z-o'ziga nisbati; -o'zini o'zi dolzarblashga intilish; - emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya; - o'z-o'ziga hurmat va "Men" ning ichki muvofikligi; -dinamizm, yutuqlarga erishish extiyoji, elektrovertlik, atrofdegilarning o'ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish; - internallik (ichki nazorat darajasi). [4]

S.A. Drujilov kasbiy shakllanishni bosqichli izchillik deb hisoblaydi, ular vaqt va faoliyat yo'llari hamda vositalari majmui sifatida belgilanadi. Kasbiy rivojlanish, birinchi navbatda, mutaxassis shaxsining rivojlanishi bo'lib, unda kasbiy muhim xususiyatlar, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni amalga oshirish yuz beradi, natijada uning ichki dunyosi sifat jihatidan o'zgarib boradi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi talabalarining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. [5].

Tadqiqotchilar YE. Yakovleva va boshqalar kasbiy shakllanishni o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan murakkab, ko'p omilli jarayon (kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlarining dialektik o'zaro ta'siri), shuningdek, tashqi va ichki jihatlar sifatida belgilaydi. Xususan, kasbiy rivojlanishning tashqi jihati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

faoliyatning ob'yektiv xususiyatlari, mutaxassisga bo'lgan talablari, kasbiy ishning tezkor tarkibiy qismi;

kasbiy rivojlanish, jumladan, shaxslararo muloqot, ta'lim sharoitlari, amaliy kasbiy faoliyat, turli xil hayotiy munosabatlardagi ijtimoiy vaziyat;

kasb-hunarda shaxsning mahsuldorligi, ya'ni iqtisodiy ahvol, ish haqi miqdori, martaba taraqqiyoti, ijodiy mahsulotlar va b.q.

Kasbiy rivojlanishning ichki, subektiv jihati quyidagi nuqtai nazarlardan o'rganiladi:

Tarkibiy-mazmuniy, ya'ni bilim, ko'nikma, malaka, psixik sifatlar va boshqalar;

protessual-biografik, ya'ni muayyan bosqichlari shaxsning hayot va ijtimoiylashuv bosqichlari bilan bog'liq, xususan, kasbiy qiziqish, niyatlarning shakllanishi, kasbiy rivojlanishdagi ziddiyatlar, kasbiy ta'lim, kasbiy moslashish va boshqalar;

samarali-natijali, ya'ni kasbiy mahoratning muayyan darajalari, professionalizatsiyaning ob'yektiv natijalari va boshqalar.

Shunday ekan, insonning o'z-o'zini rivojlantirish vositalari bilan ta'minlanishi tegishli bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllangan o'z-o'zini anglashni adekvat tashkil etish bilan bog'liq bo'lganligi sababli kasbiy rivojlanishni madaniy ahamiyatga molik voqeilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish lozim [13].

R.I. Svetkovaning fikriga ko'ra, oliy o'quv yurtida o'qish yillari ijodiy faoliyatga va uzluksiz kasbiy o'sishga kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning maqsadli jarayoni sifatida tizimli ravishda taqdim etilishi kerak. Shu sababli har bir o'quv yili turlicha, yetarlicha avtonom, yagona umumiy maqsadga bo'ysunuvchi maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilishi, xususan, bo'lajak mutaxassis shaxsining kasbiy shakllanish masalalarini nazariy anglash va shu asosda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim [10,11]

N.Ya. Saygushev kasbiy shakllanish refleksiya-sini murakkab va faol faoliyat davomida kasbiy o'z-o'zini anglashni, o'z "Men"ni saqlashning universal usuli sifatida belgilaydi. Muallif tomonidan kasbiy shakllanish refleksiya-si tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

predmetli, ya'ni kasbiy qiziqishlar, maqsadlar, shaxs kutishlari tuzilmasi refleksiya-si, ta'limiy va kasbiy harakatlar, natijalar, yutuqlar refleksiya-si, mutaxassisning kasbiy sifatleri refleksiya-si;

mazmuniy, ya'ni professionalizatsiya jarayonida shaxsning o'z-o'zini aks ettirishining refleksiya-si natijasi, "Men" struktur birliklarining aniqlangan hissiy kechinma va o'z-o'zini baholashi va b.q.;

operatsion, ya'ni "Men"ning mazmunini topish, tahlil qilish, sintez qilish va to'ldirish uchun intellektual, refleksiya-si va amaliy faoliyatning asosiy shakllari [9].

T.A Parafiyanovich, L. G. Astreyko ta'kidlaganidek, kasbiy rivojlanish murakkab va ko'p o'lchovli hodisa bo'lib, bo'lajak mutaxassis shaxsini o'zgartiradi va quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

ularida bo'lmagan, lekin kasbning asosiy talablariga javob beradigan professional fazilatlarining paydo bo'lishi;

kasbiy fazilatlar allaqachon shakllangan, ammo kasbiy faoliyat to'liq shakllanmagan kasbiy madaniyatni rivojlantirish;

mavjud refleksiya-si tasavvurlar, fikrlash usullari, kasbiy foyiat bilimlari, ko'nikma va malakalari hamda ularni amaliyotda amalga oshirish tajribasining yetishmasligi, shaxs rivojlanishining oldingi tajribasi va kasbiy mahoratning bo'lajak rivoji, madaniyat, o'z "Men"ni anglashning ikki bosqichi, ya'ni "Men" – talaba, kasbni egallovchi va kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda "Men" – mutaxassis o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish. Shaxsning kasbiy shakllanishi uning sub'yektivligini ifodalovchi shaxsiy sifati, shaxsiy "Men" erkinligi, shaxsiy o'ziga xosligi, shuningdek, inson ongida shaxsiy kasbiy fazilatlarini rivojlantirish shakli bilan ajralib turadigan sifati ekanligini ko'rsatib, mualliflar, u, avvalo, bo'lajak mutaxassisning ijtimoiy va shaxsiy tajribasiga asoslanishiga e'tibor qaratadilar. Shuning uchun, muayyan kognitiv sxemalar, ko'nikmalar, ob'yektiv qadriyat tizimlari, maxsus fikrlash usullarini o'zlashtirishdan tashqari sub'yektiv tajriba tuzilmalarining chuqur o'zgarishlarini ham ta'minlaydi [8].

N.A.Shavirning mulohazalariga ko'ra, shaxsning kasbiy o'zligini aniqlash qobiliyati bo'lg'usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbiy yaroqliligi bo'yicha o'zini-o'zi to'g'ri baholashi, irodaviy sifatleri saviyasini o'stirishi, mexnatga munosabatli bo'lishi va hayotiy tajribaga egaligi kabi shaxslilik asoslari talab etilar ekan.[12]

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda olimlarning psixologlarning kasbiy shakllanishini, jumladan, ularni oliy o'quv yurtida o'qitish bosqichida tadqiq etishga bo'lgan katta qiziqish kuzatilmoqda. Bu, bir tomondan, mutaxassis professionaligini rivojlantirish, uning muvaffaqiyati, zamonaviy jamiyatning to'laonli a'zosi sifatida shaxsiy o'sish, yosh avlodni tarbiyalashning alohida vazifasini amalga oshirish doirasida o'rganilayotgan hodisaning yuqori ahamiyati, ikkinchidan, kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalasining dolzarbligi bilan asoslanadi, bu hodisa ilmiy adabiyotlarda nisbatan xilma-xil tarzda talqin qilinadi, uning mohiyati, tuzilishini belgilashda bir xillik, aniqlik yo'q va ma'no jihatdan unga yaqin atamalarining faol ishtalilishi kuzatiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan ko'plab fikrlarga asoslanib, bo'lajak psixologning kasbiy shakllanishi deganda, uning psixolog kasbiga kirishning bosqichli jarayoni sifatida tushunilishi kerak, buning natijasida shaxsning izchil rivojlanishi, professional va muhim xususiyatlar, bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasi shakllantiriladi, bu esa oliy ta'lim muassasasida o'qishning butun davrini qamrab oladi va mutaxassisni yanada rivojlantirish uchun nisbatan kuchli kasbiy va shaxsiy poydevorini qo'yadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategisi to'g'risida"gi PF 4947-sonli Farmoni.
2. Abdurahmonova R.B. O'qituvchilar va psixologlarning kasbiy yo'nalishini shakllantirish. Dissertatsiya konspekti. dis. ... samimiy. psixolog. Fanlar. – Toshkent, 2005.-22 b.
3. Asadov Yu.M. O'qituvchining individual psixologik xususiyatlari kasbiy mahoratni rivojlantirish omillari sifatida Muallif. dis. ... samimiy. psixolog. Fanlar. – Toshkent, 2007.-25 b.
4. P.3.Gajnutdinov Диссертация... кандидата психологических наук: 19.00.03, Ташкент, 2010. - 110 с.
5. Дружилов С.А. Индивидуальный ресурс профессионального развития как необходимое условие становления профессионализма человека // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2010. - № 5. - С. 145-148.
6. S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Kasb psixologiyasi.O'quv qo'llanma. 2010.13-25.
7. Мухамедова Д.Г.Социально-психологические особенности эффективной управленческой деятельности менеджера образования // Методика и технологии в образовании. - Воронеж, 2010 - №6.-С. 51-54.,
8. Парафиянович Т.А., Астрейко Л.Г. Социально-педагогическое и психологическое сопровождение личностно-профессионального становления обучающихся. Методическое пособие для работников социально-педагогической и психологической службы. - Минск: МГВРК, 2013. – 150 с..
9. Сайгушев Н.Я. Рефлексивное управление профессиональным становлением будущего учителя. - М.: Инфра-М, 2017. - 280 с.
10. Самигуллин Г. Профессиональное становление молодого учителя / Г. Самигуллин, И. Багавиев // Директор школы.- 2006.- № 8.- С. 31-37.
11. Сапаров Ш.Б. Личности-профессиональные особенности преподавателей специальных дисциплин средних специальных профессиональных учебных заведений // Дис. к. психол. наук. - Ташкент, 1999. -156 с.,
12. Шавир Н.А.Психология профессионального самоопределения в ранней юности, fM.,1980- 96 с.

13. Яковлева Е. Становление учителя как субъекта культуры. - М.: Палмариум Асадемис Публишинг, 2012. - 340 с.